



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА СУР ҚОРАҚЎЛ ҚЎЙЛАРИНИНГ ЎСИШ СУРЪАТИ ВА РИВОЖЛАНИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Urimbetov A.A., Kalimbetova A.K.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Mavzuning dolzarbligi. Qorako'lichilik respublika chorvachiligida muhim o'rin tutadigan sohalaridan biri hisoblanib, uning asosini tashkil etuvchi qorako'l qo'ylari qariyb 20,0 mln. gektar og'ir ekstremal sharoiti bilan xarakterlanadigan cho'l yaylovlaridan foydalanishga moslashgan. Qorako'l qo'ylarining asosiy mahsuloti bo'lgan qorako'l terilari rangi, rang-barangligi va turli gullarining jozibadorligi bilan dunyoda tengsiz hisoblanadi.

Qorako'lichilik rivojlangan davlatlarda qorako'l qo'ylarining irsiyatini takomillashtirish, genofondini kengaytirish, mahsuldorlik va irsiy xususiyatlarini yaxshilash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Natijada O'zbekistonda qo'ylarning 33 ta, Qozog'istonda 20 ta, Turkmanistonda 5 ta, Tojikistonda 2 ta yuqori mahsuldor zavod tiplari, Ukrainada serpusht tipi, Moldovada sut mahsuldorligi yuqori bo'lgan suruvlari, Janubiy Afrika Respublikasi va Namibiyada "SWAKARA" tipidagi qorako'lsimon, Afg'onistonda havorang ko'k qorako'l teri beradigan qo'ylarning yirik massivlari yaratilgan.

Ma'lumki, organizmga xos bo'lgan har qanday xususiyat ota-onalardan avlodlarga ma'lum darajada beriladi. Irsiyatning imkoniyatlariga bog'liq holda bunday berilish turli darajada bo'lib, uning kattaligi oziqlantirish va saqlash, iqlim va boshqa omillarga bog'liq.

Qishloq xo'jalik hayvonlari zotlari bir-biridan biologik xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Biologik xususiyatlarning asosiy ahamiyati hayvonlarning urchitish sharoitiga moslashishi, shu sharoitda maksimal mahsuldorlikni namoyon qilishida o'z aksini topadi.

Tadqiqot maqsadi. Shimoliy-g'arbiy Qizilqum hududi sharoitida urchitilayotgan qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining eksterer ko'rsatkichlari, biologik xususiyatlari, bu xususiyatlarning qo'ylarda va ularning avlodlarida mahsuldorlik ko'rsatkichlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ta'sirini o'rganish asosida ularning mahsuldorligini oshirish yo'llarini aniqlash tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tajribadagi qo'ylardan olingan avlodlarning barra teri ko'rsatkichlari "Qorako'lichilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilar baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma asosida baholandi. Raqamli ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida "Zootexniklar uchun biometriya uchun qo'llanma" qo'llanmasi bo'yicha matematik ishlov berilgan.

Shu nuqtayi nazardan hayvonlarning moslashuvi va maksimal mahsuldorlik ko'rsatishini o'rganishda ularning biologik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar davomida tajribadagi turli guruhlariga mansub qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarning tirik vazni, eksterer o'lchamlari, tana tuzilishi indekslari, ularning dinamikasi, konstitutsional va hayotchanlik ko'rsatkichlarini o'rganish yo'nalishida izlanishlar olib borildi.

Tirik vazn va uning yosh dinamikasi. Tirik vazn ko'rsatkichi seleksiya jarayonida hisobga olinadigan muhim belgilardan biri hisoblanib, u hayvonlarning mahsuldorligi, hayotchanligi, konstitutsional mustahkamligi va boshqa xususiyatlari bilan uzviy bog'liq.

Bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi kelajakda ko'proq mahsulot olish, yashovchanlik va stress omillariga chidamlilik darajasini oshirsa, kichik tirik vazn bu ko'rsatkichlarning sezilarli pasayishiga olib keladi.

Ayniqsa qo'zilar tug'ilganda optimal va yuqori tirik vazn ko'rsatkichiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'zilarining bunday tirik vazn ko'rsatkichlariga ega bo'lishi ko'pgina omillarga, jumladan onalarining salomatligi, ularni bo'g'ozligida va tug'gandan keyin oziqlantirish sharoitiga, tug'gandan keyingi sutdorligiga va boshqalarga ko'p jihatdan bog'liq.

Ba'zi tadqiqotlarda qo'zilarining tirik vazni va yosh dinamikasiga qo'ylarning oзуqalardan foydalanish darajasi bilan farqlanuvchi etologik tiplarining ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari. Bunday ta'sirning ekstremal sharoiti bilan xarakterlanuvchi shimoli-g'arbiy Qizilqum hududida qay darajada namoyon bo'lishini o'rganish yo'nalishida tadqiqotlar amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Turli etologik tiplarga mansub qo'ylardan tug'ilgan qo'zilarining avvalgi tirik vazn ko'rsatkichlari, X) $P < 0,001$

Qo'ylarning etologik tipi	O'rganilgan avlodlar	Tirik vazn, kg	
		$X \pm S_x$	Cv
I	30	$4,36 \pm 0,07$	7,62
II	30	$4,11 \pm 0,06^{(x)}$	8,11
III	30	$3,96 \pm 0,05^{(x)}$	7,01

Olingan ma'lumotlar qo'ylar guruhlaridagi avlodlar tirik vazniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bunda 1-guruhdagi qo'ylar avlodlarining tirik vazni $4,36 \pm 0,07$ kilogrammni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha ularning 2-guruh qo'ylari avlodlari ko'rsatkichidan ($4,11 \pm 0,06$) kg 260 gramm, 3-guruh qo'ylari avlodlari ko'rsatkichidan ($3,96 \pm 0,05$ kg) 400 gramm darajasida statistik yuqori ishonchli ($P < 0,001$) ustunlik qayd etildi.

Shu bilan bir qatorda 1 va 2-guruh avlodlarida 3-guruh avlodlariga nisbatan kuzatilgan yuqori o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti ($C_v = 7,62$ va $8,11$) bu guruhlar bo'yicha avlodlar tirik vaznini oshirish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Kelajakda mahsuldorlikni oshirish bo'yicha olib boriladigan seleksiya-naslchilik ishlarida tirik vazn ortishining yosh dinamikasini bilish muhim ahamiyatga ega. Tirik vazn ortishi jadalligining yuqori bo'lishi ularda barcha xo'jalik belgilarining ijobiy tomonga siljishini ta'minlaydi. Boshqa tana tuzilishi indekslari ko'rsatkichlari bo'yicha farqlar deyarli kuzatilmadi, faqat massivlik indeksi ko'rsatkichi bo'yicha 1-guruh qo'ylar avlodlarining qolgan guruhdagi qo'ylar avlodlari ko'rsatkichlaridan ma'lum darajada ustunlik qilish aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юсупов С ва бошқалар. Қорақўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш бўйича қўлланма. – Тошкент, 2015. – Б.31.
2. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. - С.256.
3. Бобокулов, Н., Хатамов, А., Абдузоирова, Д., Юсупов, А., Уримбетов, А. и Олмасов, Б. (2021). Мясная продуктивность овец в Узбекистане и её связь с различными факторами. В E3S Web of Conferences (т. 258, с. 04020). EDP Sciences.
4. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Уримбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. Ветеринария, (5), 29-32.
5. Уримбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. Овцы, козы, шерстяное дело, (1), 24-26.
6. Уримбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. Экологический Вестник Северного Кавказа, 15(4), 91-93.